

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ERKIN FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Mualliflar:*

*Pedagogika va psixologiya  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Kadirova Omadxon,**  
*Maktabgacha ta'lism yo'nalishi  
201-guruh talabasi*  
**Toshmatova Muxlisa**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida erkin faoliyatni tashkil etishning nazariy-pedagogik asoslari yoritiladi. Erkin faoliyat bolalarning shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o'rinn egallaydi. Mualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida erkin faoliyatni samarali tashkil etish usullari, pedagogning roli va rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati haqida ilmiy-nazariy hamda amaliy ma'lumotlar keltirganlar.

**Annotation:** This article discusses the theoretical and pedagogical foundations of organizing free activities in preschool educational institutions. Free activity plays a significant role in developing children's individual interests, needs, and independent thinking skills. The authors present scientific and practical information about effective methods of organizing such activities, the role of the teacher, and the importance of a developmental environment in the growth of preschool children.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, erkin faoliyat, pedagogik asos, rivojlantiruvchi muhit, mustaqillik, ijodkorlik.

**Keywords:** preschool education, free activity, pedagogical basis, developmental environment, independence, creativity.

### KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bolalarning erkin fikrashi, mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri shaxs rivojining muhim bosqichi hisoblanib, bu davrda bolalarning qiziqishlari, ichki ehtiyojlari va shaxsiy faolligi aynan erkin faoliyat orqali shakllanadi [1].

Erkin faoliyat – bu bola tomonidan o'z xohishiga ko'ra tanlangan va amalga oshirilgan faoliyat turi bo'lib, u bolaning individual imkoniyatlari, qobiliyatlarini va ijtimoiy tajribasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat turini

samarali tashkil etish uchun pedagogik yondashuvlar, rivojlantiruvchi muhit va bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur [2].

### **ASOSIY QISM**

Erkin faoliyatning mohiyati va pedagogik ahamiyati

Maktabgacha yoshdagи bolalarda erkin faoliyat ijodiy fikrlash, mustaqil harakat qilish, tashabbus ko‘rsatish va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Erkin faoliyatga rasm chizish, qurish, dramatik o‘yinlar, badiiy ijod, konstruksion faoliyatlar kiradi. Bu faoliyatlar bolalarning o‘ziga xosligini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi [3].

Pedagogik nuqtai nazaridan qaralganda, erkin faoliyat bolada o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlarini baholash va atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo‘lishni shakllantiradi. Shu bilan birga, bu faoliyat turi orqali bola ijtimoiy muhitga moslashadi, muloqot qilish, hamkorlikda ishslash ko‘nikmalarini egallaydi [4].

Rivojlantiruvchi muhit va pedagog roli

Erkin faoliyat samaradorligi ko‘p jihatdan pedagog tomonidan yaratilgan muhitga bog‘liq. Rivojlantiruvchi muhit – bu bolada o‘rganishga, izlanishga, tajriba qilishga, savol berishga, ijod qilishga turki beradigan muhitdir. Ushbu muhit bolada qiziqish uyg‘otadigan o‘yinchoqlar, qurilish materiallari, didaktik vositalar, san’at buyumlari orqali boyitiladi [5].

Pedagog erkin faoliyatni tashkil etishda yo‘naltiruvchi emas, balki kuzatuvchi va rag‘batlantiruvchi rolini bajaradi. Bola o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi, bajaradi va natijani baholaydi. Bu jarayonlarda pedagog bolaning harakatini cheklamaydi, balki uning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi [6].

Erkin faoliyat turlari va ularni tashkil etish metodikasi

Maktabgacha ta’limda erkin faoliyat quyidagi shakllarda tashkil etilishi mumkin:

Erkin o‘yin faoliyati – rolli, didaktik, qurilish, ijodiy o‘yinlar orqali;

Ijodiy faoliyat – rasm, haykaltaroshlik, musiqiy ifoda, she’r aytish;

Tajriba-sinov faoliyati – atrof-muhit bilan tajriba o‘tkazish, kuzatish.

Mazkur faoliyat turlari maktabgacha ta’lim dasturining turli yo‘nalishlariga muvofiq rejalashtiriladi. Misol uchun, darsdan bo‘s sh vaqtarda “ijodiy burchaklar” tashkil etish, bolalarni kichik guruhlarga bo‘lib faoliyatni tanlash huquqini berish samarali bo‘ladi [7].

Erkin faoliyatning bola rivojiga ta’siri

Erkin faoliyat orqali bolalarda quyidagi psixologik va pedagogik fazilatlar rivojlanadi:

Mustaqil qaror qabul qilish;

Muammo yechish ko‘nikmalar;

Tashabbuskorlik va ijodkorlik;

Ijtimoiylashuv va muloqot madaniyati [8].

Ushbu ko‘nikmalar bola shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkin faoliyatga keng jalb etilgan bolalar boshqa bolalarga nisbatan o‘z fikrini aniq ifodalash, ijodiy fikrlash va muammolarga mustaqil yondashishda faolroq bo‘ladi [9].

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida erkin faoliyatni tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik vositadir. Pedagogning bu jarayondagi yondashuvi, muhitni to‘g‘ri tashkil etishi va bolaning shaxsiga hurmat bilan qarashi faoliyat samaradorligini oshiradi. Erkin faoliyat orqali bola o‘z qobiliyatlarini anglaydi, rivojlantiradi va ijtimoiy hayotga moslashadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’limda erkin faoliyatga alohida e’tibor qaratish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xolmurodova M. “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi”. Toshkent, 2020.
2. Jalilova Z.X. “Erkin faoliyatni tashkil etish asoslari”. Andijon, 2021.
3. Karimova N.K. “Bolalar pedagogikasi”. Samarqand, 2019.
4. Usmonova R. “O‘yin orqali ta’lim va tarbiya”. Toshkent, 2018.
5. G‘aniyeva N.S. “Rivojlantiruvchi muhit va uning pedagogik ahamiyati”. Toshkent, 2022.
6. Shodmonova D. “Psixologik-pedagogik texnologiyalar”. Toshkent, 2020.
7. Mahkamova G. “Maktabgacha ta’limda erkin ijodiy faoliyat”. Buxoro, 2021.
8. Mamatqulova S. “Shaxs rivojida erkin faoliyatning roli”. Namangan, 2022.
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi dasturlari va me’yoriy hujjatlari.